

LIRIK ASARLARNING INSON RUHIYATI VA IJTIMOY HAYOTGA TA'SIRI

Munisa Toshtemirova

Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti

kafedra 2-bosqich magistranti

+998 50 550 31 11

Toshtemirovamunisa48@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada lirik asarlarning inson ruhiyati va ijtimoiy hayotga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Lirikaning hissiy-estetik xususiyatlari, o'quvchi ongida empatiya va ma'naviy sezgirlikni shakllantirishdagi roli hamda jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlar va ruhiy muhitga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar

Lirika, estetik ta'sir, ruhiy kechinma, empatiya, ma'naviy o'sish, ijtimoiy ong, madaniy qadriyatlar, badiiy idrok, adabiy ta'sir, ijtimoiy jarayonlar.

**ВЛИЯНИЕ ЛИРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ НА ДУХ ЧЕЛОВЕКА И
ОБЩЕСТВЕННУЮ ЖИЗНЬ**

Муниса Тоштемирова

*Студент 2 курса магистратуры, кафедра узбекского языка и литературы,
факультет языков, Самаркандский государственный педагогический институт*

Аннотация

В статье анализируется влияние лирических произведений на психику человека и социальную жизнь. Рассматриваются эмоционально-эстетические особенности лирики, её роль в формировании эмпатии и духовной чувствительности у читателей, а также её воздействие на социальные ценности и психологический климат общества.

Ключевые слова

Лирика, эстетическое воздействие, эмоциональные переживания, эмпатия, духовное развитие, общественное сознание, культурные ценности, художественное восприятие, литературное влияние, социальные процессы.

**THE INFLUENCE OF LYRIC WORKS ON THE HUMAN SPIRIT AND SOCIAL
LIFE**

Munisa Toshtemirova

Annotation

This article examines the influence of lyrical works on human psychology and social life. It highlights the emotional and aesthetic nature of lyric poetry, its role in fostering empathy and spiritual sensitivity in readers, and its impact on social values and the psychological climate of society.

Keywords

Lyric poetry, aesthetic impact, emotional experience, empathy, spiritual development, social consciousness, cultural values, artistic perception, literary influence, social processes.

KIRISH

Adabiyot insoniyat ma'naviyati, tafakkuri va ijtimoiy ongini shakllantiruvchi eng muhim madaniy ko'rinishlardan biridir. Uning tarkibida alohida o'rin tutadigan lirik asarlar insonning ichki kechinmalarini, ruhiy holatini, hissiy tajribalarini teran ifodalashi bilan ajralib turadi. Lirik o'zining ixcham, mazmunan boy va emotsional kuchga ega tasvirlari orqali o'quvchi qalbiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois lirik matnlarning psixologik, axloqiy va estetik ta'sirini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki psixologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitida insonning ruhiy olami va ijtimoiy moslashuv jarayonlari yanada murakkablashib bormoqda. Bunday davrda lirik asarlarning hissiy tasalli berish, ruhiy tozalanish, empatiya uyg'otish va shaxsning ichki muvozanatini tiklashdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, lirik matnlar jamiyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash, ijtimoiy ongni uyg'otish, kishilar o'rtasida hissiy birdamlikni kuchaytirish kabi ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi. Lirik asarlar insoniyat tajribasining nozik qatlamlarini aks ettirib, shaxsning ongida hayotiy vaziyatlarga yangicha nazar bilan qarash, o'zini anglash, boshqalar his-tuyg'ularini tushunish kabi jarayonlarni shakllantiradi. Ularning estetik ta'siri tufayli o'quvchi badiiy obrazlar orqali nafaqat go'zallikni his qiladi, balki real hayotdagi ruhiy jarayonlarni anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli lirikaning ruhiy va ijtimoiy ta'siri masalasi badiiy ijodning inson hayotidagi o'rnini chuqurroq tushunish uchun muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Mazkur maqolada lirik asarlarning inson ruhiyatiga ko'rsatadigan psixologik ta'siri, ularning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimiga ta'siri, shuningdek, lirikaning ma'naviy-ma'rifiy vazifalari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot lirik

asarlarning nafaqat estetik zavq manbai, balki ijtimoiy va ruhiy taraqqiyot omili sifatida tutgan o'rnini yoritishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Lirik janr adabiyotning eng qadimiy va eng nozik turlaridan biri bo'lib, inson ruhiy olamining eng chuqur qatlamlarini badiiy shaklda aks ettiradi. A. Veselovskiy lirikaning kelib chiqishi haqida gapirar ekan, uni "insonning ichki dunyosi, tuyg'ulari va kechinmalarini bevosita ifoda etadigan adabiy shakl" sifatida baholaydi. Uning fikricha, lirikaning asosiy kuchi – shoirning sub'ektiv tajribasini umumlashgan badiiy obrazga aylantirishida namoyon bo'ladi [13, 54-58 b.]. V. Jirmunskiy esa lirik janrni boshqa janrlardan ajratib, "lirik asar voqeani emas, balki voqea ta'siridagi tuyg'uni aks ettiradi" deya ta'riflaydi. Uning ta'kidlashicha, she'riyatning markazida g'oyalar emas, balki ruhiy holatlar turadi, ritm, ohang, qofiya kabi poetik elementlar esa aynan shu ruhiy holatlarni kuchaytirish uchun xizmat qiladi [5, 87-95 b.].

O'zbek adabiyotini tadqiq etgan olimlardan N. Karimov lirikaning badiiy tabiatiga alohida urg'u beradi. U "Adabiyot nazariyasi asoslari" asarida shunday yozadi: "Lirik asarda tuyg'u harakatdagi holatda bo'ladi, kechinmalar bir nuqtadan ikkinchisiga o'tib turadi, shuning uchun lirika o'quvchida darhol ruhiy reaksiyani uyg'otadi" [7, 112-118 b.]. Karimovning ta'kidlashicha, lirika – inson ruhiyatini eng tez aks ettiruvchi janr. O. Sharafiddinov lirikaning adabiyotdagi o'rnini jamiyat bilan bog'lab talqin qiladi. U "Ijod va haqiqat" asarida shunday deydi: "She'riyat jamiyatning ruhiy holatini eng nozik darajada aks ettiradi, shuning uchun har bir ijtimoiy davrning o'z lirika ruhi mavjud" [15, 45-53 b.]. Uning fikricha, lirikaning kuchi shundaki, u jamiyatning umumiy holatini shaxs kechinmasi orqali ifodalay oladi. M. Baxtin lirik janrning adabiyotdagi o'rnini "ichki dialog" nazariyasi orqali tushuntiradi. Unga ko'ra, lirika – bu shoirning ichki ovozi va o'quvchining ichki ovozi o'rtasidagi suhbatdir. Baxtin bu jarayonni "O'quvchining ruhiy rezonansi" deb ataydi [1, 79-86 b.]. Ya'ni lirik asar o'quvchini passiv tinglovchiga emas, balki ruhiy hamkorlikka chorlaydi.

Psixologik adabiyotlarda lirikaning o'rni yana boshqa jihatdan yoritiladi. Z. Freyd lirik asarda yuzaga keladigan emotsional energiya inson ruhiyatiga terapevtik ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ko'ngil tubidagi kechinmalar ramziy obrazlarda ifoda etilib, o'quvchi ularni qabul qilganda ruhiy engillik – katarsis yuzaga keladi [3, 130-135 b.]. B. Qosimov esa o'zbek she'riyati misolida lirikaning tarixiy va ma'naviy ahamiyatini ochib beradi. U "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobida Cho'lpon, Usmon Nosir, Mirtemir kabi shoirlarning lirikasini tahlil qilib, ularning she'rlarida "davr ruhiyati, millatning ichki iztiroblari va umidlari eng kuchli ifodasini topgan"ligini ta'kidlaydi [11, 210-218 b.].

Umuman olganda, adabiyotshunoslarning tahlillari shuni ko'rsatadiki, lirik janr adabiyotda uch asosiy vazifani bajaradi:

1. Ruhiy-falsafiy vazifa – insonning ichki olamini ochish, tuyg‘u va kechinmalarni badiiy shakllantirish.

2. Estetik vazifa – ritm, ohang, metafora va ramzlar orqali his-tuyg‘ularni obrazli ifodalash.

3. Ijtimoiy-ma’naviy vazifa – jamiyat ruhiyatini, davr kayfiyatini, milliy ong holatini ifodalash.

Demak, lirik janr adabiyotning faqatgina hissiyotlarga asoslangan turi emas, balki jamiyat, tarix, inson psixologiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, keng qamrovli badiiy hodisadir.

Lirik asarlar jamiyatning ma’naviy hayotini shakllantiruvchi asosiy badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Lirika insonning ruhiy kechinmalarini ifodalash bilan bir qatorda, ijtimoiy ong va jamiyat kayfiyatini ham aks ettiradi. Adabiyotshunos A.Qodirov ta’kidlaganidek, “she’riyat zamon ruhi va ijtimoiy ehtiyojlarni eng tez sezadigan va ularni badiiy obrazlar orqali keng ommaga etkazadigan san’at turidir” [10, 112 b.]. Demak, lirikaning ijtimoiy funksiyasi bevosita jamiyatdagi jarayonlarning estetik talqini bilan belgilanadi. Lirik asarlar ijtimoiy muhitni tarbiyalash, ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash, odamlarni ma’rifatga chorlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Erkin Vohidovning “O‘zbekim” she’ri xalqning milliy o‘zlikni anglash jarayonida katta ma’naviy kuch bo‘lib xizmat qilgani ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan [6, 87 b.]. Bu kabi asarlar jamiyatda yuksak vatanparvarlik kayfiyatini shakllantiradi, xalqning tarixiy xotirasini mustahkamlaydi.

Lirika ijtimoiy hayotda faqat vatanparvarlik yoki ma’naviy uyg‘otish funksiyasi bilan cheklanmaydi; u jamiyatdagi muammolarni ham badiiy ifoda orqali ko‘rsatadi. Shoirning fuqaroviy pozitsiyasi – adolatsizlikka norozilik, insoniylik va halollikni ulug‘lash, jamiyatdagi axloqiy inqirozlarga munosabat – she’riy obrazlarda o‘z aksini topadi. Cho‘lpon lirikasida ozodlikka intilish, ma’rifatni targ‘ib qilish orqali ijtimoiy uyg‘onish g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lib, bu uning ijodiga oid tadqiqotlarda batafsil yoritilgan [14, 54-55 b.].

Lirik matnlar jamiyatdagi umumiy kayfiyatga, ayniqsa yoshlar dunyoqarashiga ta’sir qiladi. She’riyatning tasavvur, sezgi, ruhiy idrok orqali ongga ta’sir qilishi ijtimoiy ongni shakllantirishning noan’anaviy, ammo samarali yo‘lidir. Abdulla Oripovning “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” she’ri mustaqillikdan keyingi yillarda yoshlar ongida ma’naviy birdamlik, milliy g‘ururni kuchaytirgan asarlar qatoriga kiradi. Bu fikr Oripov ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham tasdiqlangan [4, 103 b.].

Men nechun sevaman O‘zbekistonni

Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo.

Nechun Vatan deya er-u osmonni,

Muqaddas atayman, atayman tanho.

Aslida dunyoda tanho nima bor,

Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.
Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman,
Nechun ardoqlarkan tuprog'ini men
O'paman: "Tuprog'ing bebaho, Vatan..."

Shuningdek, lirik asarlar jamiyat axloqiy muhitini tartibga solishda, ma'naviy inqirozlar oldini olishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Chunki lirik qahramonning ruhiy olami, ideallari, munosabatlari o'quvchida ma'naviy uyg'onish, o'zini anglash, hamdardlik va bag'rikenglik kabi fazilatlar shakllanishiga sabab bo'ladi. Adabiyotshunos A. Rasulov bu jarayonni "lirik qahramonning jamiyat uchun ideal axloqiy model bo'lib shakllanishi" deb izohlaydi [12, 61 b.]. Shu bois lirik asarlar jamiyatning madaniy va ma'naviy taraqqiyotiga doimiy ta'sir ko'rsatadigan kuchdir. Ular insonni tarbiyalaydi, jamiyatni uyg'otadi, millatning ruhiy qiyofasini boyitadi. Lirika orqali tarqaladigan g'oyalar jamiyat ongida uzoq muddatli ijtimoiy-estetik jarayonlarni shakllantiradi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi lirik asarlarning jamiyat va shaxs ruhiyatidagi o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uni amalga oshirishda adabiyotshunoslik, psixologiya va sotsiologiya fanlarining integrativ yondashuvlari qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy poydevorini, avvalo, adabiyot nazariyasida lirik janrning mohiyati, uning estetik va ijtimoiy funksiyasi haqidagi ilmiy qarashlar tashkil etadi. A.Qodirovning "Lirik asar insonning ichki dunyosini va jamiyatdagi umumiy ruhiy kayfiyatni eng nozik shakllarda aks ettiruvchi badiiy tizimdir" degan fikri mazkur tadqiqotning asosiy metodologik nuqtalaridan biri sifatida qabul qilindi [10, 102 b.].

Tadqiqot jarayonida tahliliy-taqqosiy metod, psixologik talqin metodi, strukturaviy-gestalt yondashuv, lirik qahramon konsepsiyasiga asoslangan semantik-funksional tahlil, shuningdek, ijtimoiy-estetik funksiyalarni o'rganish metodi qo'llandi. Lirika inson ruhiy holatini qay darajada yoritishi va jamiyatga ta'sir qilish mexanizmlarini aniqlash uchun psixologik yondashuv asosiy metodlardan biri bo'ldi. Jumladan, estetik kechinma va katarsis jarayonlari, she'riy obrazlarning his-tuyg'uga ta'sir mexanizmi D.Leventalning badiiy idrok psixologiyasiga doir qarashlari bilan uyg'un holda izohlandi [16, 57-58 b.].

Sotsiologik yondashuv lirik asarlarning jamiyat ongiga, milliy g'oya va qadriyatlar shakllanishiga ta'sirini o'rganishga xizmat qildi. Lirik matnning ommaviy ongda qanday baholanishi, qanday kayfiyatlar uyg'otishi, qaysi ijtimoiy jarayonlarga turtki bo'lishi masalalari Karimov A. va Jabborov X.ning she'riyat va ijtimoiy ong haqidagi tadqiqotlari asosida tahlil qilindi [6, 92 b.]. [4, 117 b.]. Tadqiqotning nazariy asosida

lirik qahramon tushunchasi ham markaziy o‘rin tutdi. Yo‘ldoshev Q.ning Cho‘lpon lirikasiga doir tahlillarida lirik qahramonning jamiyatdagi ideal shaxs modelini yaratishdagi roli yoritilishi – metodologik nuqtai nazardan muhim tayanch bo‘ldi [14, 63-64 b.]. Bu qarashlar lirik qahramonning nafaqat estetik, balki tarbiyaviy va ijtimoiy-ma‘rifiy funksiyalarini o‘rganishda qo‘llanildi.

Shuningdek, tadqiqotda strukturaviy-semantik tahlil metodi ham muhim o‘rin egalladi. Lirik asardagi obrazlar tizimi, ramzlar, ritm va ohangning ma‘naviy-ijtimoiy mazmun shakllanishiga ta‘siri strukturaviy yondashuv asosida o‘rganildi. Bunda A.Rasulovning “Badiiy ongning estetik strukturasi jamiyat ruhiy holatini qayta ishlab beradigan tizim” degan fikri metodologik dalil sifatida xizmat qildi [12, 74 b.].

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar bir-birini to‘ldiradi:

- psixologik tahlil – shaxs ruhiyatidagi ta‘sir mexanizmini ochib beradi;
- ijtimoiy-estetik tahlil – lirik asarning jamiyat hayotiga ta‘sirini yoritadi;
- komparativ metod – turli shoirlar lirikasidagi umumiy va farqli ijtimoiy motivlarni aniqlaydi;
- badiiy-semantik tahlil – she‘riy matnning mazmuniy qatlamlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Shu tariqa metodologik majmua lirik asarlarning nafaqat badiiy-estetik mohiyatini, balki ularning jamiyat rivoji, ijtimoiy fikr shakllanishi va shaxs ruhiyati bilan bog‘liq murakkab jarayonlardagi o‘rnini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

NATIJALAR

Ushbu tadqiqot davomida lirik asarlarning inson ruhiyati va ijtimoiy hayotdagi o‘rni har tomonlama tahlil qilinib, bir qator ilmiy xulosalarga erishildi. Avvalo, lirik janrning adabiyotdagi o‘rniga doir ilmiy qarashlar qayta ko‘rib chiqildi va A.Qodirov ta‘kidlaganidek, lirikaning “zamon ruhi va shaxsiy kechinmalarni eng teran aks ettiruvchi badiiy shakl” ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatdiki, lirik asarlar insonning ichki kechinmalariga bevosita ta‘sir etuvchi kuchga ega bo‘lib, badiiy obrazlar, ritm, musiqiylik va estetik ifoda vositalari orqali o‘quvchi ruhiyatini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Bu jarayon psixologik talqin asosida baholanganida, D.Levental ta‘riflagan “badiiy idrokning emotsional rezonansi” lirik asarlar misolida ayniqsa faol ishlashi aniqlandi. Tadqiqotning yana bir muhim natijasi shundan iboratki, lirika nafaqat shaxsiy kechinmalarni ifodalaydi, balki jamiyatning ma‘naviy muhitini shakllantiradi. Lirik asarlar ijtimoiy ongga ta‘sir etish, ma‘naviy qadriyatlarni mustahkamlash, milliy g‘oya va vatanparvarlik kayfiyatini kuchaytirish kabi funksiyalarni bajaradi. Karimov A. tomonidan XX asr o‘zbek she‘riyati misolida ko‘rsatib o‘tilganidek, she‘riyat jamiyatning o‘zini anglash jarayoniga bevosita ta‘sir etuvchi kuchga ega bo‘lib, ayniqsa o‘zgarishlar davrida u milliy ongning uyg‘onishiga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida o‘zbek lirikasidan olingan misollar – Erkin Vohidov,

Abdulla Oripov, Cho'lpon kabi shoirlar ijodi – lirikaning jamiyatdagi ma'naviy yangilanish jarayoniga qanday hissa qo'shganini yaqqol ko'rsatdi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, lirik qahramon fenomeni jamiyat uchun ma'naviy-axloqiy model yaratishda muhim o'rin tutadi. Yo'ldoshev Q. ta'kidlaganidek, "lirik qahramon – jamiyatning ideal shaxs haqidagi tasavvurini badiiy shaklda mujassam qiluvchi obrazdir". Tadqiqot mobaynida aniqlanishicha, lirik qahramonning tasavvuri o'quvchi ongida ideal inson modeli sifatida ko'rinadi va bu jarayon shaxsning axloqiy va estetik qarashlarida chuqur iz qoldiradi. Demak, lirika shaxs tarbiyasi, ma'naviy etuklik va axloqiy madaniyat shakllanishiga bevosita xizmat qiladi. Yana bir muhim natija shundan iboratki, lirik asarlar jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, lirik matnlar sotsiologik ko'rsatkichlar sifatida ham ishlaydi: ular jamiyat kayfiyatini ifodalaydi, mavjud muammolarni bilvosita yoritadi, fuqaroviy pozitsiyani kuchaytiradi. Jabborov X.ning Oripov lirikasiga bag'ishlangan tadqiqotida qayd etilganidek, she'riyat ijtimoiy ongning faollashuvi, milliy birlikning mustahkamlanishi va jamiyatning yangilanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot ham lirikaning bunday ijtimoiy-estetik vazifalarini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida qo'llanilgan metodlar samaradorligi ham tasdiqlandi. Psixologik, strukturaviy-semantik, sotsiologik va komparativ yondashuvlarning uyg'un holda qo'llanishi lirik asarlarning murakkab ta'sir mexanizmlarini to'liq aniqlash imkonini berdi. A.Rasulovning estetik ongga doir qarashlari asosida olib borilgan strukturaviy tahlil lirik asardagi mazmun qatlamlarining jamiyatdagi ma'naviy jarayonlar bilan uyg'unlashib borishini ko'rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari lirik asarlarning nafaqat badiiy-estetik, balki keng ko'lamli ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. She'riyat jamiyatning ruhiy manzarasini shakllantiradi, shaxsning ichki kechinmalarini tartibga soladi, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy uyg'onish va ijtimoiy ong rivojiga bevosita ta'sir etadi.

MUNOZARA

Ushbu tadqiqotda olingan natijalar lirik janrning inson ruhiyati va ijtimoiy hayotga ta'siri haqidagi mavjud ilmiy qarashlarni tasdiqlash bilan birga, ayrim jihatlarida ularga qo'shimcha izoh va sharh kiritish zarurligini ham ko'rsatdi. Avvalo, lirikaning emotsional-falsafiy mohiyatiga doir A.Qodirovning "Lirika – shaxsiy ruhiy olamning badiiy kontsentratsiyasi" degan ta'rifini kengaytirish lozim bo'ldi, chunki tadqiqot davomida lirikaning nafaqat shaxsiy kechinmalar, balki ijtimoiy kayfiyatlarni ham mujassam aks ettiruvchi badiiy makon ekani aniqlandi. Bu jihat lirik janrning sotsiologik funksiyasi masalasi bilan bog'liq bo'lib, mazkur xususiyat hozirgi adabiyotshunoslikda etarli darajada tizimli o'rganilmaganini ko'rsatadi.

Ba'zi tadqiqotchilar – xususan, Levental D. lirikaning psixologik ta'sirini individual idrok doirasida ko'radi va uni asosan, shaxsning emotsional rezonansi bilan bog'laydi. Tadqiqot davomida esa lirikaning psixologik ta'siri faqat individual darajada emas, balki jamiyat miqyosida ham yuzaga chiqishi, ya'ni she'riy asarlar ijtimoiy ong, jamoaviy ruhiyat va madaniy kayfiyatga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi isbotlandi. Bu holat Leventalning g'oyalarini to'ldiradi va psixologik yondashuvni sotsiokulturn yondashuv bilan integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. She'riyatning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri borasida Karimov A. tomonidan ilgari surilgan fikrlar tadqiqot natijalari bilan uyg'unlashadi. Uning "She'riyat – milliy ongning faollashish omili" degan fikri mazkur izlanish davomida ayniqsa tasdiqlandi. Biroq tadqiqotdan ayon bo'ldiki, lirikaning ijtimoiy ta'siri faqat yuksak vatanparvarlik yoki g'oyaviy ruh bilan cheklanmaydi; zamonaviy she'riyat ijtimoiy muammolarni yoritish, jamoaviy og'riqlarni badiiy tilda ifodalash, insonni jamiyatdan ajrab qolishdan asrash kabi vazifalarni ham bajarmoqda. Bu ko'lam Karimov tahlilida etarlicha keng ochildi, ammo tadqiqot natijalari ushbu ko'lamning yanada chuqurligini ko'rsatdi. Lirik qahramon fenomeni masalasida Yo'ldoshev Q.ning qarashlari bilan tadqiqot xulosalari umumiy jihatdan mos tushadi. Yo'ldoshev lirik qahramonni jamiyat uchun ideal axloqiy model sifatida talqin qiladi. Tadqiqot esa bu modelning zamonaviy adabiyotda transformatsiyaga uchraganini – endilikda lirik qahramon nafaqat ideal, balki hayotiy, ichki ziddiyatlarga ega, real jamiyat vakili sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Bu holat lirikaning zamonaviy shakllanish jarayonida real psixologik holatlarni tasvirlash tendensiyasi kuchayganidan dalolat beradi.

A.Rasulov "Badiiy ongning estetik strukturalari jamiyat ruhiy holatini qayta ishlab beruvchi mexanizm" ekanini ta'kidlar ekan, estetik tahlilning ijtimoiy jihatlari haqida fikr bildiradi. Tadqiqot davomida Rasulovning g'oyalari amaliy misollar orqali tekshirildi va lirikaning estetik strukturalaridagi ritm, obraz, ramz, metafora kabi vositalar jamiyat ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi tasdiqlandi. Biroq tadqiqotdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, lirikaning ijtimoiy ta'siri faqat estetik mexanizmlar bilan emas, balki shoirning fuqaroviy pozitsiyasi, asarning yozilish davri, jamoaviy ehtiyojlar va ijtimoiy kontekst bilan ham belgilanadi. Bu esa estetik yondashuvni sotsiologik yondashuv bilan boyitish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, munozara shuni ko'rsatadiki, lirik asarlarning inson ruhiyati va ijtimoiy hayotga ta'siri bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar izchil va asosli bo'lsa-da, lirikani faqat estetik yoki faqat psixologik kategoriya sifatida o'rganish etarli emas. Tadqiqot natijalari lirikaning kompleks, ko'p qirrali, multifunksional badiiy tizim ekanini va uni psixologiya, sotsiologiya, estetika hamda komparativ adabiyotshunoslik nuqtalaridan birgalikda o'rganish zarurligini ko'rsatdi.

XULOSA

Ushbu tadqiqotning natijalari lirik asarlarning inson ruhiyati va ijtimoiy hayotga ta'sirini kompleks va ko'p qirrali hodisa sifatida tasdiqladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, lirika inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochib beruvchi vosita bo'lib, shaxsning ichki kechinmalarini ifodalash, hissiy barqarorlikni mustahkamlash va shaxsiy o'zini anglash jarayonini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda qo'llangan psixologik, sotsiologik va badiiy-estetik metodlar shuni ko'rsatdiki, lirik asarlar nafaqat individual darajada, balki jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy hayotida ham sezilarli ta'sirga ega. Lirik asarlar jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash, milliy g'oyalarni targ'ib qilish, ijtimoiy ongini rivojlantirish va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishda samarali vosita ekanligi tadqiqot natijalarida yaqqol namoyon bo'ldi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, lirik qahramon fenomeni jamiyat va shaxs uchun axloqiy va estetik model yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Lirikaning ijtimoiy va psixologik funksiyalari, shoirning fuqaroviy pozitsiyasi, asarning yozilish davri va ijtimoiy kontekst birgalikda inson va jamiyat ongini shakllantirish mexanizmini tashkil etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, lirik janr adabiyotda nafaqat hissiyot va estetik go'zallik ifodasi, balki jamiyat va shaxs ongini uyg'otuvchi, ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarni rivojlantiruvchi kuchli badiiy fenomen sifatida o'rganilishi lozim. Tadqiqot natijalari lirik asarlarni psixologik, sotsiologik va estetik jihatlardan integrativ yondashuv bilan o'rganishning samaradorligini tasdiqladi va kelajakdagi adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun metodologik asos yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Baxtin M. Adabiy nutq janrlari. – Moskva: Nauka, 1996.
2. Bradbury M. The Functions of Literature. – London: Routledge, 2005.
3. Freyd Z. San'at va psixoanaliz. – Moskva: Progress, 1990.
4. Jabborov X. Abdulla Oripov poetikasida ijtimoiy-lirik motivlar. – Toshkent: Universitet, 2016.
5. Jirmunskiy V. Teoriya literatury. – Moskva: Prosveshchenie, 1981.
6. Karimov A. XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2011.
7. Karimov N. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
8. Navoiy Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Sharq, 1990.
9. Qahhor A. Adabiyot va hayot. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1984.
10. Qodirov A. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2009.
11. Qosimov B. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2005.
12. Rasulov A. Estetika va badiiy ong. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
13. Veselovskiy A. Poetika ocherklari. – Moskva: Nauka, 1977.

14. Yoʻldoshev Q. Choʻlpon lirikasining poetikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
15. Sharafiddinov O. Ijod va haqiqat. – Toshkent: Akademnashr, 1987.
16. Levental D., Psixologiya i tvorchestvo, Moskva: Nauka, 2002.